

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati (2023- yil yanvar-mart)

1. Yalpi ichki mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-mart oylarida O'zbekiston Respublikasi YaIM hajmi joriy narxlarda **198 483,5** mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan **5,5 %** ga o'sdi.

Sanoat tarmog'ining o'sishi **4,1 %** ni tashkil etdi va YaIM o'sishiga ijobiy hissasi **1,1 f.p.**ni tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining o'sishi **3,2 %** ni tashkil etdi va YaIM o'sishiga ijobiy hissasi **0,4 f.p.**ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining o'sishi **4,5 %** ni tashkil etdi. Qurilish tarmog'ining YaIM o'sishiga ijobiy hissasi **0,3 f.p.**ni tashkil etdi.

Xizmat ko'rsatish sohasida o'sish sur'ati **7,0 %** ni tashkil etdi. Shundan savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar **4,2 %** ga, tashish va saqlash, axborot va aloqa **12,8 %** ga hamda boshqa xizmat sohalari **6,3 %** ga o'sdi. Xizmat ko'rsatish sohasining YaIM o'sishiga ijobiy hissasi **3,1 f.p.**ni tashkil qildi.

Mahsulotlarga sof soliqlar hajmi **6,5 %** ga o'sdi va uning YaIM o'sishiga ijobiy hissasi **0,6 f.p.**ni tashkil etdi.

2. Sanoat mahsuloti

2023- yil yanvar-mart oylarida respublika korxonalarini tomonidan **131,0** trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish indeksi **104,1** foizni tashkil etdi.

Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida qayta ishlash sanoatining ulushi **81,1** foizni, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati **9,9** foizni, Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash **8,5** foizni, suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish **0,5** foizni ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi o'sishining asosiy omili, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatda ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilning shu davriga nisbatan **4,3** foizga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajmining **2,0** foizga, suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajmining **4,6** foizga xamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajmining **5,4** foizga o'tgan yilning shu davriga nisbatan ko'payishi bo'ldi.

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish (**104,4 %**) xamda metallurgiya sanoati (**102,9 %**) ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga, asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilning shu davriga nisbatan (**58,4 %**),

avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish korxonalarida (**94,2 %**), ishlab chiqarish hajmida pasayish kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida xom neft va tabiiy gaz (2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **99,7 %**) hamda metall rudalari (**98,0 %**) qazib olishda pasayishi kuzatildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan iste'mol tovarlarining o'sish sur'ati **105,1 %** ni tashkil etdi va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning umumiy hajmidagi ulushi **30,5 %** ga etdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi **40,0** foizni, nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi **60,0** foizni tashkil etdi.

Shu bilan birga, 2022- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati **111,3** foizni, nooziq-ovqat mahsulotlari **101,3** foizni tashkil etdi.

3. Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

2023- yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot(xizmat)lari hajmi **40 416,3** mlrd. so'mni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan **103,2%** ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilikda, ovchilikda va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 38 289,6 mlrd. so'mni (103,3%), o'rmon xo'jaligida – 1 790,5 mlrd. so'mni (100,7%), baliqchilik xo'jaligida – 336,2 mlrd. so'mni (100,5%) tashkil qildi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot(xizmat)lari hajmining oshishi, asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmining ko'payganligi (3,2%) bilan bog'liq. Barcha toifadagi xo'jaliklarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining oshishi go'shtning – 3,9 % ga, sutning – 3,2 % ga oshishi bilan izohlanadi.

Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 87,4% - dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 8,1% - fermer xo'jaliklari, 4,5% - qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi xo'jaliklar hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

4. Inflyatsiya darajasi

2023- yilning yanvar-mart oylarida respublika iste'mol sektoridagi inflyatsiya darajasi **2,4 %** ni tashkil etdi.

Joriy yilning I choragida oziq-ovqat mahsulotlari narxlarini o'rtacha **3,4 %** ga qimmatlashib, inflyatsiya darajasining umumiy o'sish sur'atiga 1,45 foiz darajasida (keyingi o'rinlarda f.d.) ta'sir etdi. Nooziq-ovqat mahsulotlari narxlarini ushbu davrda **1,6 %** ga qimmatlashib, umumiy ko'rsatkichning 0,57 f.d. o'sish sur'atini, xizmatlar esa **1,6 %** ga qimmatlashib, umumiy ko'rsatkichni qo'shimcha 0,37 f.d. o'sish sur'atini ta'minladi. Yig'ma ko'rsatkichning o'sish sur'atiga ta'siri tuzilmasida oziq-ovqat mahsulotlari hissasiga umumiy o'sish sur'atining 60,7 % i, nooziq-ovqat mahsulotlari hissasiga 23,8 % i va xizmatlar hissasiga 15,5 % i to'g'ri keldi.

Yig'ma INI o'sish sur'ati tarkibida oziq-ovqat inflyatsiyasining ta'siri yaqqol namoyon bo'ldi. Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar

narxining oshishi hisobiga joriy yilning I choragidagi yig'ma INI 1,39 t.d. yuqoriladi. Salmoq ulushi ko'rsatkichlarida ushbu mahsulotlar hissasiga kuzatiladigan tovarlar va xizmatlar umumiy ta'sirining 58,1 % i to'g'ri keldi.

2023- yilning yanvar-martida oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar o'rtacha 3,5 % ga qimmatlashdi. Shu bilan birga, ushbu bo'lim guruhlarida orasida meva-sabzavot mahsulotlari yuqori ustunlik bilan yetakchilik qildi. Joriy yilning I choragida mevalar va yong'oqlar narxi 5,7 % ga, sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar 18,5 % ga oshdi. Narxlarning pasayishi yog'lar va moylar guruhida qayd etildi (-1,6 %).

Boshqa bo'limlar orasida narxlarning sezilarli oshish darajasi restoranlar va mehmonxonalar xizmatlarida (4,0 %), transport sohasida (2,9 %), maishiy tovarlar va xizmatlar, boshqa tovarlar va xizmatlarda (2,8 %), sog'liqni saqlash hamda dam olish, sport va madaniyat (2,7 % dan) sohalarida kuzatildi.

5. Asosiy kapitalga investitsiyalar

2023- yilning yanvar-mart oylarida, barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi **56557,6** mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **103,1** foizni tashkil etdi.

Shu bilan birga, asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar umumiy hajmida korxonalar mablag'lari hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar ulushi **28,6** %ni, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar – **3,6** %, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lar – **10,6**%, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar – **40,9**%, shundan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) – **21,0**%, aholi mablag'lari – **9,5**%, Respublika budjeti – **6,2**%, Taraqqiyot va rekonstruksiya jamg'armasi – **0,2**%, Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg'armasi **0,4**%.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning 2022- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlarini moliyalashtirishning asosiy manbalari: To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) – **136,8**%, korxonalar mablag'lari – **100,6**%, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar – **122,0**%, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lar – **100,4**%, Respublika budjeti – **2,1**m%.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha past o'sish sur'atlari: Taraqqiyot va rekonstruksiya jamg'armasi – **90,9**%, Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari – **71,7**%, aholi mablag'lari – **99,3**%, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar – **97,9**%.

6. Qurilish ishlari

2023- yilning yanvar-mart oylarida **27564,6** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **104,5**%ni tashkil etdi. Qurilish ishlarining umumiy hajmining **6 439,8** mlrd. so'm yoki **23,4**% yirik korxonalar va tashkilotlar, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan **16 339,8** mlrd. so'm yoki **59,3** %, norasmiy sektor sub'ektlari tomonidan **4 785,1** mlrd.so'm yoki **17,3**% bajarildi.

7. Chakana savdo tovar aylanmasi

2023- yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **59 050,8** mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **5,2 %** ga o'sdi.

Yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **9,6 %** ga o'sdi, bu esa umumiy savdo hajmining **17,3 %** ulushiga to'g'ri keladi. Kichik biznes sub'ektlarining chakana tovar aylanmasi 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **4,4 %** ga o'sgan. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **82,7 %** ni, shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **10,5 %** ulush bilan **6 219,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.

8. Tashqi savdo aylanmasi

2023- yilning yanvar-mart oylari yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi **14 779,7** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **1 570,3** mln. AQSh dollariga yoki **11,9 %** ga ko'paydi. Eksport hajmi **5 688,9** mln. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **2,6 %** ga kamaydi (*Nomonetar oltin hisobiga kamaydi va uning hajmi 2 410,3 mln. AQSh doll., o'tgan yilning mos davriga nisbatan 18,9% ga kamaygan*). Import **9 090,8** mln. AQSh dollariga yetdi, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **23,4 %** ga o'sdi.

Eksport tarkibida quyidagi guruhlarda o'sish kuzatildi, jumladan: ichimliklar va tamaki o'tgan yilning mos davriga nisbatan - **2,7 m.** (17,9 mln. AQSh doll.)ga, kimyo mahsulotlari va ulardan tayyorlangan mahsulotlar **12,8 %** (32,1 mln. AQSh doll.)ga, turli xil tayyor buyumlar **35,6 %** (74,9 mln AQSh doll.)ga hamda oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar **22,3 %** (62,7 mln. doll.)ga ko'paydi.

Import tarkibida quyidagi guruhlarda ham o'sish kuzatildi, jumladan: mashinalar va transport asbob-uskunalar - **41,9 %** (1 074,0 mln. AQSh doll.)ga, mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar **52,7 %** (256,3 mln. AQSh doll.)ga hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar - **15,7 %** (161,2 mln. AQSh doll.)ga to'g'ri keladi.

9. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari

2023- yilning yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **96,8** trln. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **10,9 %** ga o'sdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga moliyaviy xizmatlarining **16,9 %** ga (ko'rsatilgan umumiy bozor xizmatlari hajmining o'sishidagi ta'siri **3,9** punkt), transport xizmatlari **13,7 %** ga (o'sishdagi ta'siri **2,9** punkt), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **21,0 %** ga (o'sishdagi ta'siri **1,3** punkt), savdo xizmatlari **4,3 %** ga (o'sishdagi ta'siri **1,1** punkt), ta'lim sohasidagi xizmatlarni **16,6 %** ga (o'sishdagi ta'siri **0,6** punkt) o'sishi ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng katta hajmi moliyaviy xizmatlar (**23,2** trln.so'm, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati **116,9** %), transport xizmatlari (**23,1** trln.so'm, **113,7** %) va savdo xizmatlari (**22,9** trln.so'm, **104,3** %)ga to'g'ri keladi.

10. Korxonalar va tashkilotlar soni

2023- yil 1- aprel holatiga respublikada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **483,6** mingtani (*fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari*) tashkil etdi, ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 417,2 mingta. Hududlar bo'yicha joylashgan eng ko'p soni esa Toshkent shahar (93 406 ta), Toshkent (44 876 ta), Samarqand (43 806 ta), Farg'ona (42 309 ta), Qashqadaryo (37 666 ta), Andijon (32 476 ta) va Buxoro (29 292 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning eng ko'p soni savdo sohasida – 152 460 ta, sanoat sohasida – 75 578 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasida – 42 031 ta, qurilish sohasida – 35 106 ta hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 27 945 tani tashkil etadi.

2023- yil yanvar-mart oyida respublikada 23,9 mingta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, shundan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 23,2 mingtani tashkil etdi.

2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra respublikada xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 12 693 tani tashkil etdi. Ulardan 5 009 tasi qo'shma korxonalarni va 7 684 tasi xorijiy korxonalarni tashkil etgan.